HADISSHUNOSLIK ILMINING YOSH AVLOD MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI.

I.K.Nabiyev[1]

1. Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti 13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi 1-kurs doktaranti 0009-0004-8040-0529 Gmail: pedagogkiu@gmail.com

Mas'ul muallif: Nabiyev Islom Karimoivich, Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti 13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi 1-kurs doktaranti 0009-0004-8040-0529 Gmail: pedagogkiu@gmail.com.

e-mail: pedagogkiu@gmail.com

Received: 16 Noyabr 2026
Accepted: 21 Noyabr 2026
Published: 26 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Nabiyev, I. K. HADISSHUNOSLIK ILMINING YOSH AVLOD MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDAGI PEDAGOGIK AHAMIYATI. / I. K. Nabiyev // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 402–405.

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharqona va milliy tarbiyaning poydevori sanalgan hadisshunoslik ilmining yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirishdagi pedagogik ahamiyati tadqiq etilgan. Tadqiqotda Qur'oni Karim hamda Hadisi Shariflarning shaxs dunyoqarashini kengaytirish, ilm-ma'rifatga intilish, halollik, poklik, ota-onaga hurmat va vatanparvarlik kabi yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, hadislarning tasnifi, ularni yoshlarning hissiy-ruhiy olami va tafakkuriga ta'sir etuvchi tarbiyaviy mezonlari hamda komil insonni voyaga yetkazishdagi amaliy imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: hadisshunoslik ilmi, Hadisi Sharif, Qur'oni Karim, ma'naviy-axloqiy tarbiya, pedagogik ahamiyat, komil inson, milliy tarbiya, ilm-ma'rifat, yosh avlod, insoniy fazilatlar.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАУКИ ХАДИСОВЕДЕНИЯ В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ.

Аннотация. В данной статье рассматривается педагогическое значение науки хадисов, считающейся основой восточного и национального образования, в духовно-нравственном развитии молодого поколения. В исследовании научно и теоретически анализируется роль Священного Корана и хадисов в расширении личного мировоззрения, стремлении к знаниям и просвещению, честности, чистоте, уважении к родителям и патриотизме. Также раскрывается классификация хадисов, их воспитательные критерии, влияющие на эмоциональный и духовный мир и мышление молодежи, и их практические возможности в воспитании совершенной личности.

Ключевые слова: наука хадисов, хадисы, Священный Коран, духовно-нравственное воспитание, педагогическое значение, совершенная личность, национальное образование, знания и просвещение, молодое поколение, человеческие качества.

THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF HADITH STUDIES IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF THE YOUNGER GENERATION.

Abstract. This article examines the pedagogical significance of the science of hadith, which is considered the foundation of oriental and national education, in the spiritual and moral development of the younger generation. The study scientifically and theoretically analyzes the role of the Holy Quran and Hadith Sharifs in expanding the personal worldview, striving for knowledge and enlightenment, honesty, purity, respect for parents and patriotism. It also reveals the classification of hadiths, their educational criteria that affect the emotional and spiritual world and thinking of young people, and their practical possibilities in raising a perfect person.

Keywords: science of hadith, Hadith Sharif, Holy Quran, spiritual and moral education, pedagogical significance, perfect person, national education, knowledge and enlightenment, young generation, human qualities.

Kirish. Yosh avlodni har tomonlama barkamol, bilimli va ma'naviy yetuk shaxs sifatida shakllantirish, shuningdek, ularning tabiiy qobiliyatlari, iste'dod va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishda ta'lim-tarbiya vositalaridan samarali foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o'quvchi-yoshlarni hadis ilmining mazmun-mohiyati, tarbiyaviy imkoniyatlari va ma'naviy-axloqiy qadriyatlari bilan yaqindan tanishtirish pedagog va tarbiyachilar zimmasiga muayyan kasbiy mas'uliyat hamda pedagogik vazifalarni yuklaydi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Sharq xalqlariga xos tarbiya an'analari uzoq tarixiy taraqqiyot davomida islomiy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ma'naviy tamoyillar asosida shakllanib, izchil rivojlanib kelgan. Xususan, Qur'oni Karim oyatlarida ilgari surilgan ezgu g'oyalar, Muhammad (s.a.v.)ning hadislari, shuningdek, Sharq mutafakkirlari va faylasuflarining ilmiy-ma'rifiy merosi milliy tarbiya tizimining muhim ma'naviy manbalari sifatida namoyon bo'lgan. Islomiy tarbiya inson hayotining

deyarli barcha jabhalarini qamrab olib, uning kundalik xatti-harakatlari, ijtimoiy munosabatlari va axloqiy fazilatlarini tartibga solishga xizmat qilgan. Ayniqsa, yosh avlodda halollik, poklik, mehnatsevarlik, ilm olishga intilish, insonlarga hurmat va ota-onaga ehtirom kabi yuksak insoniy fazilatlarni qaror toptirish islomiy axloq ta'limotining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Islom dini insonning nafaqat moddiy, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topishini ham ustuvor maqsad sifatida belgilovchi ta'limotdir. Shu nuqtayi nazardan, Qur'oni Karim va Hadisi Sharifda inson odob-axloqini yuksaltirish, ezgu xulq-atvor me'yorlariga rioya etish hamda ijtimoiy hayotda yuksak axloqiy tamoyillarga amal qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur manbalarda bayon etilgan axloqiy qarashlar insonning shaxsiy kamoloti, oilaviy munosabatlari va jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim ma'naviy mezonlar hisoblanadi.

Qur'oni Karim matnining yagona va ishonchli shaklda saqlanishi hamda musulmonlar orasida keng tarqalishida xalifa Usmon ibn Affon davrida amalga oshirilgan ishlar alohida tarixiy ahamiyatga ega. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, uning tashabbusi bilan Qur'on matni maxsus komissiya tomonidan jamlanib, yagona mushaf shaklida tartibga keltirilgan. Ushbu jarayonda Zayd ibn Sobit boshchiligidagi sahobalar muhim vazifani bajargan. Keyinchalik tayyorlangan mushafdan bir necha nusxa ko'chirtirilib, musulmon dunyosining yirik markazlariga yuborilgan. Natijada Qur'oni Karim matnining bir xilligi ta'minlanib, undan foydalanishning umumiy tartibi shakllantirilgan. Shu tariqa Qur'on musulmonlarning diniy e'tiqodi, ijtimoiy munosabatlari, ma'naviy hayoti va axloqiy faoliyatini tartibga soluvchi asosiy muqaddas manba sifatida mustahkam o'rin egallagan.

Islom ta'limotining asosiy g'oyalari, musulmonchilik talablariga oid qoidalar, shuningdek, diniy-huquqiy va axloqiy me'yorlar, eng avvalo, Qur'oni Karim, uning tafsirlari, Hadisi Sharif, shariatga oid manbalar hamda islom ilohiyotiga doir ilmiy-adabiy asarlarda o'z ifodasini topgan. Ushbu manbalar musulmon jamiyatining ma'naviy hayotini tartibga solish, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni axloqiy mezonlar asosida shakllantirish va shaxsning ma'naviy kamolotini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Qur'oni Karim jahon ma'naviy-madaniy merosining bebaho namunalaridan biri bo'lib, musulmonlar uchun muqaddas kitob maqomiga ega. Arab tilidagi «Qur'on» atamasi «qiroat qilish», «o'qish» ma'nolarini anglatadi. Muqaddas kitob jami 114 ta suradan tashkil topgan bo'lib, an'anaviy islomiy tasnifga ko'ra, ularning 90 tasi Makka davrida, 24 tasi esa Madina davrida nozil bo'lgan. Qur'oni Karimning mazmun-mohiyati insoniyatni ezgulikka, adolatga, ilm-ma'rifatga, halollikka va yuksak axloqiy fazilatlarga chorlovchi umuminsoniy g'oyalar bilan boyitilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Qur'oni Karimda ilgari surilgan g'oyalar insonlarni o'zaro tenglik, birodarlik, hamjihatlik, tinchlik va ezgu amallarga chorlaydigan umuminsoniy qadriyatlar majmuasini tashkil etadi. Shu jihatdan, mazkur muqaddas manba nafaqat diniy, balki yuksak ma'naviy-axloqiy ahamiyatga ham ega. Qur'on ta'limotining tarbiyaviy mohiyatini tahlil qilish jarayonida uning inson shaxsini ma'naviy jihatdan kamol toptirish, axloqiy dunyoqarashini boyitish va ijobiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirishdagi o'rni yaqqol namoyon bo'ladi. Uning bebaho ahamiyati inson hayotining turli jabhalarida amal qilishi zarur bo'lgan ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy talablarni yaxlit ta'limot sifatida mujassamlashtirganligi bilan belgilanadi. Aynan shu xususiyatlari tufayli Qur'oni Karim ko'p asrlardan buyon insoniyatning muqaddas ma'naviy merosi, axloqiy kamolot va ezgulik manbalaridan biri sifatida yuksak qadrlanib kelmoqda.

Islom dini ta'limotining mazmun-mohiyatini anglashda Qur'oni Karimdan keyingi muhim manba Hadisi Sharif hisoblanadi. «Hadis» atamasi arab tilidan olingan bo'lib, lug'aviy jihatdan xabar, so'z, rivoyat va yangilik kabi ma'nolarni anglatadi. Islomiy istilohda esa hadislar Muhammad (s.a.v.)ning aytgan so'zlari, amalga oshirgan ishlari, muayyan holatlarga bildirgan munosabatlari hamda ma'qullashlarini ifodalovchi rivoyatlar majmuasidir. Hadislar mazmun va nisbatiga ko'ra, hadisi qudsiy hamda hadisi nabaviy kabi turlarga ajratiladi. Hadisi qudsiy mazmuni Alloh taologa nisbat beriladigan, biroq Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) tomonidan bayon etilgan rivoyatlarni anglatadi. Hadisi nabaviy esa Payg'ambarimizning o'z so'zlari, amallari va taqrirlarini aks ettiruvchi rivoyatlardan iboratdir.

Hadis ilmi doirasida rivoyatlarning ishonchlilik darajasini aniqlash alohida ahamiyatga ega. Shu mezonga ko'ra, hadislar, asosan, uchta asosiy darajaga tasniflanadi:

Sahih hadislar – roviylar zanjiri uzluksiz, roviylari ishonchli hamda hadisning qabul qilinishiga to'sqinlik qiluvchi nuqsonlardan xoli bo'lgan rivoyatlar.

Hasan hadislar – ishonchlilik jihatidan maqbul bo'lgan, biroq ayrim jihatlari bilan sahih hadis darajasidan quyi turuvchi rivoyatlar.

Zaif hadislar – rivoyat zanjiri yoki roviylarning ishonchliligi bilan bog'liq muayyan kamchiliklar mavjudligi sababli sahihlik va hasanlik talablariga javob bermaydigan rivoyatlar.

Qur'oni Karimda insoniyat hayotiga oid huquqiy, ijtimoiy va axloqiy masalalarning asosiy tamoyillari umumiy mazmunda bayon etilgan. Ushbu tamoyillarning amaliy mohiyatini ochib berish, ularni sharhlash va kundalik hayotga tatbiq etish borasida Muhammad (s.a.v.)ning sunnatlari hamda hadislar muhim manba vazifasini bajargan. Payg'ambarimizning sahobalari u zotdan eshitgan so'zlar, kuzatgan amallar va guvoh bo'lgan voqealarni xotiralarida saqlashga, ularni keyingi avlodlarga ishonchli tarzda yetkazishga intilganlar. Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan keyin hadislarni rivoyat qilish, o'rganish va avloddan avlodga yetkazish jarayoni yanada keng tus olgan. Vaqt o'tishi bilan hadislarni yo'qolib ketishdan asrash, ularni tizimli ravishda jamlash va yozma manbalar shaklida saqlash zarurati yuzaga kelgan. Natijada hadislarni to'plash, saralash, tekshirish va tasniflashga qaratilgan ilmiy faoliyat shakllana boshlagan.

Hadislarni yozma shaklda to'plash, tizimlashtirish va ilmiy jihatdan o'rganish tarixida Ibn Shihob az-Zuhriy (Muhammad ibn Muslim az-Zuhriy)ning ilmiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. U hadislarni jamlash, yozib olish va kelajak avlodlarga yetkazish borasida salmoqli xizmat qilgan dastlabki muhaddislardan biri sifatida tarixda munosib o'rin

egallaydi. Keyingi tarixiy davrlarda hadis ilmi mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlanib, rivoyatlarning ishonchlilik darajasini aniqlash, roviylarning hayoti va ilmiy salohiyatini o‘rganish, hadislarni mazmuni hamda ishonchlilik mezonlariga ko‘ra tasniflash metodologiyasi izchil takomillashib borgan. Mazkur ilmiy jarayon hadislarni tadqiq etuvchi olimlardan chuqur diniy bilim, keng dunyoqarash, kuchli xotira, ilmiy xolislik, sinchkovlik, yuksak mas’uliyat va boy hayotiy tajribaga ega bo‘lishni talab etgan. Shu asosda hadis ilmi islom sivilizatsiyasining muhim ilmiy-ma’naviy yo‘nalishlaridan biriga aylanib, diniy e’tiqod, axloqiy qadriyatlar va tarbiyaviy tamoyillarning shakllanishi hamda avlodlar davomiyligini ta’minlashda muhim manba vazifasini bajargan.

Hadisi Sharifda insonning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi fazilatlar tizimi keng yoritilgan bo‘lib, ularda shaxsning o‘zgalarga munosabati, jamiyatdagi xulq-atvori va kundalik faoliyatini ezgu tamoyillar asosida tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, mehr-oqibat, saxovatpeshalik, bag‘rikenglik, ota-onaga ehtirom, kattalarga hurmat, qarindosh-urug‘larga g‘amxo‘rlik, Vatanga sadoqat, mehnatsevarlik, kasb-hunarga hurmat, halollik, poklik, do‘stlik, oliyjanoblik, rahmdillik, kamtarlik, rostgo‘ylik va vijdonlilik kabi fazilatlar komil inson shaxsini tavsiflovchi muhim axloqiy mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, hadislarda insonni yolg‘onchilik, hasad, kibr, xudbinlik, adolatsizlik va boshqa salbiy illatlardan tiyilishga, o‘z xatti-harakatlarini ezgulik, adolat va insonparvarlik tamoyillari asosida boshqarishga undovchi tarbiyaviy ko‘rsatmalar ham o‘z ifodasini topgan. Mazkur axloqiy qarashlar Qur’oni Karimda belgilangan ma’naviy-axloqiy tamoyillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, shaxsda yuksak insoniy fazilatlarni qaror toptirish, uning ma’naviy dunyosini boyitish va jamiyat uchun foydali, mas’uliyatli hamda barkamol insonni tarbiyalashning muhim nazariy-amaliy asoslaridan biri hisoblanadi.

Islom ta’limotida insonning ma’naviy-axloqiy kamolotini belgilovchi asosiy mezonlardan biri mustahkam iymon va e’tiqodga ega bo‘lish hisoblanadi. Qur’oni Karim va Hadisi Sharifda islomiy tarbiyaning muhim maqsadi inson qalbida sog‘lom e’tiqodni shakllantirish, uni ezgu amallar va yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashdan iborat ekanligi ta’kidlanadi. Hadislarda iymonning mukammalligi uchta muhim talab bilan bog‘lanadi: to‘g‘ri e’tiqodga ega bo‘lish, insonlar bilan samimiy va yaxshi munosabatda bo‘lish hamda o‘z ustida muntazam ishlash orqali ibodat va itoatga odatlanish [2,14]. Ushbu tamoyillar shaxsning ma’naviy dunyosi va axloqiy xulq-atvorini takomillashtirishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Hadisi Sharifda inson kamolotining muhim omili sifatida ilm-ma’rifatga alohida e’tibor qaratiladi. Bilim olish, uni muntazam takomillashtirish va jamiyat manfaatlari yo‘lida qo‘llash insonning intellektual hamda ma’naviy salohiyatini belgilovchi mezonlardan biri sifatida talqin etiladi. «Ilm talab qilish har bir musulmonga farzdir» mazmunidagi hadis ilm egallashning naqadar muhimligini ifodalaydi. Shuningdek, ilmning unutilishdan saqlanishi, uni takrorlash va munosib insonlarga yetkazish zarurligi ham ta’kidlanadi [1,53]. «Ilmu hunarni Xitoyda bo‘lsa ham borib o‘rganinglar» mazmunidagi rivoyat esa bilim olishda hududiy va boshqa to‘siqlar bilan cheklanmaslik g‘oyasini ifodalaydi [1,60]. Demak, hadislar ilmning inson tafakkuri, dunyoqarashi va aqliy salohiyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritib beradi.

Inson kamoloti uzluksiz izlanish, bilim olish va o‘zini ma’naviy jihatdan takomillashtirib borish jarayonidir. Shu nuqtayi nazardan, yosh avlodni hadis ilmi bilan tanishtirish ularning qalbida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, halollik, adolat va ezgulik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Hadislarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ular nafaqat insonning aqliy tafakkuriga, balki hissiyoti, ruhiy olami va axloqiy qarashlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Natijada yoshlarning ma’naviy dunyosi boyib, ularda ijobiy xulq-atvor, ijtimoiy mas’uliyat va komillikka intilish kabi sifatlar rivojlanadi.

Insonning hissiy va ruhiy olamini tarbiyalash bilan bir qatorda, bolalarda idrok, dunyoqarash va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish ham ta’lim-tarbiya jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon yosh avlod ongida ijtimoiy hayot va jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish, ezgulikka muhabbat, yovuzlikka esa murosasiz munosabatni qaror toptirishga xizmat qiladi. Shaxsning ma’naviy-axloqiy kamoloti uzluksiz jarayon bo‘lib, insonning butun hayoti davomida takomillashib boradi. Uning darajasi, avvalo, kishilar bilan muloqotida, ijtimoiy munosabatlarida, xatti-harakatlari va xulq-atvorida namoyon bo‘ladi. Hadislarda ilm olishning inson hayotidagi yuksak mavqei alohida ta’kidlanib, uning ibodatdan ham ustun jihatlari mavjudligi qayd etiladi.

Jumladan, hadislarda «Ilm ibodatdan afzal va u taqvo dinining ustunidir», degan mazmundagi hikmatli fikrlar ilm-ma’rifatning inson kamolotidagi beqiyos o‘rnini ifodalaydi. Shuningdek, ularda insonlarni poklik, tartib-intizom, mehr-shafqat, saxovat va boshqa ezgu fazilatlar ruhida yashashga da’vat etuvchi axloqiy ko‘rsatmalar keng o‘rin olgan. Ilm va bilimlardan oqilona, samarali hamda insoniyat manfaatlariga xizmat qiladigan maqsadlarda foydalanish zarurligi ham alohida uqtiriladi. Haqiqiy barkamol inson bilimli, odobli, sog‘lom va o‘z salohiyatini jamiyat farovonligi yo‘lida safarbar eta oladigan shaxs sifatida tavsiflanadi. Hadislarda ilmni chuqur o‘zlashtirish va undan oqilona foydalanish masalasiga ham katta ahamiyat berilgan. Xususan, «Boshliq bo‘lmasingizdan avval ilmni chuqur o‘rganing», degan mazmundagi rivoyatda insonning muayyan mavqe yoki mas’uliyatga ega bo‘lishidan oldin yetarli bilim va tajriba orttirishi lozimligi ta’kidlanadi. Buning dalili sifatida Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning sahobalari yoshi ulg‘aygan davrlarida ham ilm olishda davom etganliklari qayd etiladi. Shuningdek, Rasulullоh (s.a.v.) ikki holatda hasad qilish joizligini bayon etib, ulardan birinchisi Alloh tomonidan mol-dunyo ato etilgan va uni ezgu yo‘lda sarflayotgan inson, ikkinchisi esa ilm va hikmat berilgan, ushbu bilimlar asosida to‘g‘ri hukm chiqaradigan hamda boshqalarga ta’lim beradigan kishilar ekanligini ta’kidlaganlar. Mazkur qarashlar ilmning nafaqat shaxsiy yuksalish, balki jamiyat taraqqiyoti va insonlar manfaatiga xizmat qiluvchi muhim ma’naviy boylik ekanini ko‘rsatadi.

Islom ta’limotida insoniy fazilatlarning eng muhimlaridan biri sifatida ota-onaga hurmat ko‘rsatish, ularga mehr-muhabbat va g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish, ularning qadr-qimmatini e’zozlash masalalariga alohida e’tibor

qaratiladi. Farzandning ota-ona oldidagi burch va mas'uliyatlari diniy-axloqiy manbalarda keng yoritilib, ularni qadrlash yuksak insoniy fazilat sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, insonning har tomonlama rivojlanishi va ma'naviy kamolotga erishishi uning jismoniy salomatligi bilan ham bevosita bog'liqdir. Chunki jismonan sog'lom, ruhan tetik inson oilasi, jamiyat va mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga qodir bo'lgan faol shaxs sifatida shakllanadi. Demak, yosh avlod tarbiyasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jismoniy salomatlikni asrash va ma'naviy yetuklikni ta'minlash o'zaro uzviy bog'liq pedagogik vazifalar hisoblanadi.

Hadisi Sharif va umuman, islom ta'limotida tozalik hamda poklik masalasi muhim axloqiy va tarbiyaviy tamoyillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bunda nafaqat jismoniy ozodalik, balki insonning qalbi, niyati va ruhiy olamining pok bo'lishi ham nazarda tutiladi. Jumladan, hadislarda Alloh taoloning poklikni sevishi, tozalik, saxovat, oliyjanoblik va ochiqko'ngillik kabi fazilatlarni qadrlashi ta'kidlanib, insonlarni o'z yashash muhiti va atrofini ozoda saqlashga chaqiruvchi ko'rsatmalar keltiriladi. Xususan, «Haq taolo o'zi pok, poklikni yaxshi ko'radi. O'zi toza, tozalikni yaxshi ko'radi. O'zi oliyhimmatdir, oliyhimmatlikni yaxshi ko'radi. O'zi ochiq ko'ngil, ochiq ko'ngillikni yaxshi ko'radi. Eshiklarning oldini pokiza tutinglar», mazmunidagi rivoyatlarda poklikning shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi ahamiyati ifodalangan. Bundan tashqari, hadislar insonning erkinligi, ozodligi, shaxsiy daxlsizligi va huquqlarini hurmat qilish masalalariga ham muhim o'rin ajratadi. Bunday qarashlar inson sha'ni va qadr-qimmatini e'zozlash, uning erkinligini hurmat qilish hamda o'zaro munosabatlarda adolat va insonparvarlik tamoyillariga amal qilish zarurligini anglatadi.

Islom ta'limotida insonning har tomonlama kamol topishi, intellektual va ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarishi hamda jamiyatning faol a'zosi sifatida shakllanishida erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, inson sha'ni va qadr-qimmatini e'zozlash fundamental tamoyillar sifatida qaraladi. Mazkur g'oyalar Qur'oni Karim va Hadisi Sharifda o'zining diniy-falsafiy hamda axloqiy-pedagogik ifodasini topgan. Inson kamolotining muhim shartlaridan yana biri uning jismoniy va ruhiy salomatligi bo'lib, ushbu omillar shaxsning intellektual rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va hayotiy faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim mezonlar hisoblanadi. Zero, jismonan sog'lom, ruhan tetik va ma'nan yetuk inson oilaviy munosabatlarda, ijtimoiy muhitda hamda jamiyat taraqqiyoti jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Islomiy manbalarda salomatlikni muhofaza qilish, jismoniy va ruhiy poklikka rioya etish, shaxsiy gigiyena madaniyatini shakllantirish hamda atrof-muhit ozodaligini ta'minlash masalalariga alohida ahamiyat berilgan. Bu jihatlar poklikni nafaqat tashqi ozodalik, balki insonning ichki ma'naviy dunyosi, axloqiy mas'uliyati va kundalik turmush madaniyati bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin etish imkonini beradi.

Hadisi Sharifda mujassamlashgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar insonning e'tiqodiy qarashlarini mustahkamlash, axloqiy ongini rivojlantirish, xulq-atvorini ijobiy mezonlar asosida shakllantirish va ma'naviy kamolotga erishishida muhim manba vazifasini bajaradi. Shu ma'noda, hadislar shaxsning axloqiy fazilatlarini tarkib toptirish, ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, adolat, halollik, mas'uliyat va bag'rikenglik tamoyillariga amal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan muhim tarbiyaviy salohiyatga ega. Ularning mazmun-mohiyatini yosh avlodning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish, hadislar orqali ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlarni o'quvchilarning kundalik faoliyati va xulq-atvorida namoyon etishiga erishish zamonaviy pedagogik faoliyatning muhim vazifalaridan biridir.

Xulosa. Islom ta'limotining ma'rifatparvarlik mohiyati insonning aqliy, jismoniy va ma'naviy rivojlanishini yaxlit jarayon sifatida e'tirof etishi, mustahkam e'tiqod, yuksak axloq, halol mehnat, poklik va oliyjanoblikni shaxs kamolotining asosiy mezonlari sifatida belgilashida namoyon bo'ladi. Mazkur ta'limotda jaholat, nodonlik va axloqiy tubanlikning oldini olish, ilm-ma'rifatni egallash, halol mehnat orqali farovon hayot kechirish, oila a'zolari, qarindosh-urug'lar, millat va Vatan manfaatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish alohida qadriyat sifatida ulug'lanadi. Binobarin, Hadisi Sharifda aks etgan mazkur ma'naviy-axloqiy tamoyillar yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirish, ularda mustaqil axloqiy pozitsiya, ijtimoiy mas'uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik va fuqarolik fazilatlarini shakllantirish hamda barkamol shaxsni tarbiyalashning muhim ma'naviy-pedagogik asoslaridan biri hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. Тошкент, «Камалак». 1991. 51-бет.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis, 1-jild. Al-Jome' as-sahih (Ishonarli to'plam). Toshkent. Qomuslar Bosh tahririyati, 1991.

Mirzayeva T, Safarov O, O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – T. Aloqachi nashriyoti, 2008.

Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q, Kayumova N.M, A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. –T. Tafakkur nashriyoti. 2019.

Jalolov F. O'zbek folklorida janrlararo munosabat. –T.: Fan nashriyoti, 1979

К.Хошимов, С.Нишонова. Педагогика тарихи. Toshkent, "Ўқитувчи" 1996.

https://kh-davron.uz/kutubxona/qoshimcha/rivoyatlar/ilm-haqida-hikmatlar.html